

**Tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri.**

**Isomova Farog'at Tojiddinovna**

**Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy kamolotida, hayoti davomida tarbiyani tashkil etish va uning ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya maqsadi, tarbiyaning vazifalari, tarbiya mazmuni, ilmiy dunyoqarash, tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan obyektiv zaruratdir. Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik ta'sir ko'rsatishdir. Demak, aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisi bo'lib, u yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, ko'nikma va malakalar, me'yorlar, qoidalar va boshqalarda ro'y beradi. Bu holat kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlarni, keraqli shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma'lum maqsad asosidagi ta'sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir. Chunki aql xis-tuyg'ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo'lgan jarayonlar yig'indisidir. Aqliy rivojlanish fikrning kengligida voqealarni har xil bog'lanishlarda, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiyashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'quv, mehnat, samarali faoliyatlar: rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, applikasiya, ko'rish - yasash jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta'lim va tarbiya samarali ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika va psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali xal etishda, bir tomondan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomondan, bola organizmning umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha toliqtirish bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonuniyatlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik- pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalar mazmunini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolatdir. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'ladi, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar. Faqat yaxshi tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi, shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilarning asosiy vazifasi — bolaga muayyan maqsadni ko'zlab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoit yaratishdir.

Aqliy tarbiya va ta'limning nazariy asoslari. Bola har doim buyumlar hamda xodisalar orasida bo'ladi. Bola doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko'radi, hidlaydi, tortib ko'radi, nimagadir quloq soladi. Shu tariqa asta-sekin dunyoni bilib boradi. Tevarak- atrofdagi buyumlar, tabiat bolaning sezgi organlari-analizatorlariga ta'sir etadi va sezgi hosil qiladi.

Sezgi bolalarga buyumlarning ayrim xossalarini: sovuq-issiq, g'adir- budur, silliq-yaltiroq, xushbo'y va xk. ni bilim olishga yordam beradi. Sezgi atrofdagi muhitni bilishning dastlabki bosqichi sanaladi. Bola sezgi tufayligina tevarak-atrofdagi narsalar to'g'risida bilim, tajriba to'plab boradi. Idrok esa ancha murakkab jarayon bo'lib, sezgilar asosida hosilbo'ladi. Bola olmani qo'lida ushlab ko'rib, qarab chiqib va yeb ko'rib, uni yaxlit bir buyum, ayni bir vaqtda dumaloq, qizargan, xushbo'y, mazali va xk. tarzda idrok qiladi. Bola olmani yaxlit bir buyum tarzida tasavvur qilishi uchun birdaniga bir nechta analizator: ko'rish, sezish va xid bilish analizatorlaridan foydalanadi. Analizatorlar bir vaqtning o'zida birdaniga ishlashi buyumning xossasi va belgilarini anikroq hamda to'laroq bilish imkonini beradi. Shuning uchun katta yoshdagi kishilar bolani ilk yoshlik chog'idan boshlab aqliy jihatdan to'g'ri tarbiyalash maqsadida buyumlarni ko'prok analizatorlar yordamida idrok qilishga imkon tug'dirishlari, analizatorlarning rivojlanishiga, ya'ni bolaning sensor madaniyatiga alohida e'tibor berishlari kerak.

Aqliy tarbiyaning asosiy vazifalari:

U bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

U aqliy faoliyat, bilish jarayonlari va qobiliyatlarni, aqliy jarayonning xilma-xil usullarini rivojlantirish.

U mustaqil bilish qobiliyatlarini, aqliy mehnatmadaniyatini rivojlantirish.

U aqliy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Bilimni tasavvurlar va tushunchalar, qoidalar, qonuniyatlar, sistemalar shaklidagi turli fanlarning mazmuni tashkil etadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalarda voqea va xodisalarni to'la aks ettiradigan yuksak darajadagi umumlashtirilgan bilimlar tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bilim dunyoqarashning asosini tashkil etadi. Demak, bola tevarak atrofdagi narsalar, ularning vazifasi sifati va xossalari (sinadi, pachoq bo'ladi, yirtiladi, to'qiladi) haqida, qaysi materialdan tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi. U tabiat xodisalari, ularning o'zaro bog'liqligi va qonuniyatlari (yil fasllarining o'ziga xos belgilari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar, hayvonlar, ularning hayoti va yashash tarzining tashkil qilinishiga, xulqiga, yashash sharoitiga mosligi va xk.) ni bilib oladilar. Jonsiz tabiat, o'simliklar, hasharot va hayvonlarni kuzatishi jarayonida tarbiyachi bolalarda borlik to'g'risidagi materialistik tasavvurlarni shakllantirib boradi. Bilimlarni egallab borish natijasida bolaning shaxsi hamshakllanib boradi. Bola san'atning har xil turlari to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab oladi. Bilim insonning mehnatga munosabatini shakllantiradi. Aqliy faoliyatni rivojlantirish bilim hajmi va xususiyatiga bog'liq. Aqliy faoliyatni rivojlantirish esa psixik jarayonlarni sezgi va idrok etish, taassurot, xotira, fikrlash, tasavvur va nutqni shakllantirish ni ham bildiradi. Bunda ularga aqliy faoliyatning g'oyat samaradorligini ta'minlaydigan xis-tuyg'ular nozikligi va aniqligi, idrok etishning sobitqadamligi va to'laqonli, esda qolishning mustax- kamligi hamda ongligi, tafakkur mantiqiy va uning moslashuvchanligi, ijodiy xususiyat va mustaqillikka xos bo'lishi kerak.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'zlariga tushunarli bo'lgan ijtimoiy voqea va xodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari, respublikamizda yashaydigan ba'zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg'otish, Vatanga muxabbat tuyg'usi va baynalmilalchilik asoslarini shakllantirishga yordam beradi. Aqliy ta'lim-maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar tizimi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va tizimlashtirish, bilish jarayonlari, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyati asoslari hosil qilinadi, maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Hayot ta'limning ikki xil yo'l bilan amalga oshirilishini taqozo etmoqda. Birinchi yo'l bolalarning bilim, malaka ko'nikmalarini kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish orqali egallab borishidir. Bu muomala, mehnat faoliyati va shu kabilar bilan belgilanadi. Ammo bu yo'l bilan egallagan bilim va malakalar bolaga hayotning turli sohalarida mustaqil qatnashish uchun imkoniyat yaratmaydi. Ta'limning ikkinchi yo'li maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka va ko'nikmalar bilan rejali ravishda qurollantirib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir. Barcha olim-u fozillar, shoir-u yozuvchilar o'z davrining nufuzli ta'lim maskanlarida o'qish bilan xurmat- e'tibor topganlar. Abu Nasr Forobiy, Maxmud Koshg'ariy, Abu Rayxon Beruniy, Abduraxmon Jomiy, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Saidrasul Aziziy, Muxammad Sharif Sufizoda, Abdulqodir SHokiriy, Abdulla Avloniy va boshqalarmukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar va yangiliklar yaratganlar, shu bilan birga boshqalarni ham ilm egallashga chaqirganlar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish tizimi pedagogikada ilk bor chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592—1670) tomonidan yaratilgan. Y.A. Komenskiy 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Y.A. Komenskiy 19 bo'limdan iborat maktabgacha ta'lim dasto'rini tuzdi. Masalan, u tabiatshunoslik (fizika) suv, yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, o't, qum va boshqalarhaqida bilim berish lozimligini, astrnomiya, geografiya, optika va boshqa sohalarida bolalarga bilim berish kerakligini asoslab berdi. Bolalar bog'chasida beriladigan ta'lim bolalarning maktabda oladigan bilimlari bilan o'zviy bog'lik bo'lishi kerakligini ta'kidladi. U o'zining "Onalar maktabi" kitobida kichik bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturi hamda metodikasini juda sinchiklab ishlab chiqqan. Shu bilan Y.A. Komenskiy maktabgacha tarbiya pedagogikasining mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos soldi. Shvetsar pedagogi I.G.Pestalotssi (1746-1827) maktabgacha tarbiya didaktikasini tuzishda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlantirish masalasiga katta e'tibor beradi. G. Pestalotssi tomonidan ishlab chiqilgan ta'limning asosiy mazmuni maktabgacha tarbiya pedagogikasining rivojlanishda va bolalarga keyinchalik maktabda sistemali ta'lim berishda asosiy dastur bo'lib xizmat qildi. Xozirgi zamon maktabgacha ta'lim nazariyasini yaratishda A.P.Usovaning xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi. Olima rahbarligida 1950- yillarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, bolalar bog'chasi har bir yosh guruhining ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni, metod va usullari ishlab chiqildi. Bu o'tkazilgan ishlar ta'limning tarbiyaviy ishdan farqini aniq belgilab berdi. Ta'limning nazariy jihatlari

ishlanishi “Bolalar bog’chasi tarbiya dasturi”da “Mashg’ulot” bo’limini ajratish imkonini berdi va dasturning keyingi nashrlarida bu bo’lim takomillashtirilib borildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maxmudova, N. (2018). THE ROLE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN THE INNOVATIVE TRAINING PROCESS. *Экономика и социум*, (3 (46)), 34-36.
2. Hikmatovna, M. N. (2023). Goals and Tasks of Education. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 360-362.
3. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.
4. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 386-388.
5. Mahmudova, N. H. (2023). Influence of family environment on personal socialization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 440-446.
6. Nigora Hikmatovna Mahmudova. (2023). BASIC TASKS OF TEACHING THE SCIENCE OF "EDUCATION" IN PRIMARY GRADES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 447-452.
7. Hikmatovna, M. N. (2024). Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obykti va subyekti sifatida. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 31-43.
8. Sobirovna, S. Y. (2023). O ‘YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 93-99.
9. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(2), 87-92.
10. Yulduz, S. (2023). MAKTABGACHA YOSH DAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 124-129.
11. Sobirovna, S. Y. (2022). PEDAGOGNING KREATIVLIGI BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHINING ZARUR SHARTI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 219-220.
12. Sobirovna, S. Y. (2022). KICHIK MAKTAB YOSH DAGI O ‘QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 158-160.
13. Sobirovna, Y. S. (2023). Methods and Tools of Economic Education in Preschool Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 109-115.
14. Sobirovna, S. Y. (2023). METODIST FAOLIYATI ASOSLARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(5), 108-114.
15. Sobirovna, S. Y. (2023). Creativity in the work of an educator. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 361-367.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-2

16. Sidiqova Yulduz. (2024). SYUJETLI-ROLLI O`YINLARNING BOLA FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 44–51.
17. Sidiqova Yulduz Sobirovna. (2024). MAKTABGACHA TA`LIMDA NUTQ, MULOQOT O`QISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 52–62.
18. Sobirovna, S. Y. (2024). AESTHETIC EDUCATION AS A TOOL TO LEAD CHILDREN TO PERFECTION. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, 2(2), 354-367.
19. Yulduz, S. (2024). Estetik tarbiya bolalarni komillikka yetaklovchi vosita sifatida. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(2), 95-106.
20. Isomova, FATQ (2022). THE IMPORTANCE OF SPEECH DEVELOPMENT ACTIVITIES IN PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949.
21. G'aniyevna, P. R. F. (2022, June). MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI UCHUN SAVODXONLIKKA O`RGATISH MASHG`ULOTLARIDA, A`HARF-TOVUSHINI O`RGATISH METODIKASI. In *E Conference Zone* (pp. 38-41).
22. O`ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O`YINLAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 484-486.
23. Oktam's, S. M. (2023). Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 104-108.
24. O`ktam qizi Shukurova, M. (2023). Speech grow up in training using interactive methods. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 357-360.
25. O`ktam qizi Shukurova, M. (2023). The importance of genres of folklore in the education of preschool children. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 96-99.
26. Shukurova, M. (2023). METHODS AND METHODS OF INCREASING CHILDREN'S SPEECH IN A PRESCHOOL ORGANIZATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 477–480.
27. Bahriyeva, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(6), 47-51.
28. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 277-284.
29. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res*, 65(1), 2719-2722.
30. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск)*, (23), 127-130.
31. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 277-284.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-2

32. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(6), 47-51.
33. Ro'ziyeva, M. Y. (2021). O'qish darslarida fasllar bilan bog'liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro 'ziyeva MY, Boshlang 'ich ta'lim nazariyasi kafedراسи mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloeva, BuxDU, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).
34. Xayrullayevich, S. H. (2023). SPORT GIMNASTIKASIDA HARAKATLAR KETMA-KELIGINING NAMOYON BO'LISHI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 478-491.
35. Xayrullayevich, S. H. (2023). Use of Acrobatic Exercises and Their Terms In The Process of Teaching Gymnastics. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599), 1(9), 80-86.
36. Xayrullayevich, S. H. (2023). АЭРОБНОЙ ГИМНАСТИКИ. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 449-456.
37. Xayrullayevich, S. H. (2023). SPORTS ARE GYMNASTICS IN ACTION SERIES-BE THE MANIFESTATION OF COME. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 465-477.
38. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedراسи mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).
39. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2024). PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AND THEIR ORGANIZATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 125–129.
40. Madina O'ktamovna Shukurova. (2024). " Growing children's speech in the process of introducing them to the environment and nature ". *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 130–135.
41. Ситора Икромова Акбаровна. (2024). РАЗВИТИЕ СОЗНАНИЯ И ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ПОНЯТИЯМ БЕССОЗНАТЕЛЬНОГО. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 157–163.
42. Mahmudova Nigora Hikmatovna. (2024). INFLUENCE OF FAMILY ENVIRONMENT ON PERSONAL SOCIALIZATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 164–170.
43. Ниёзова, Д. Б., Кодирова, Н. К., Курбанова, Л. М., Акбаров, Х. И., & Каттаев, Н. Т. (2019). Синтез и физико-химические свойства хитозан-кремнеземных нанокomпозиционных материалов. *Universum: химия и биология*, (6 (60)), 68-72.
44. Toshboyeva, S. Q., Hamidov, S. X., & Qurbanova, L. M. (2021). Elektrolitik dissotsiyalanish nazariyasini o'qitishni AKT asosida takomillashtirish. *Science and Education*, 2(3), 357-361.
45. Ayubovna, S. M. (2023). Physical downloads and the rest of fulfilling exercise mutual dependence. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 394-409.
46. Ayubovna, S. M. (2023). Physical downloads and the rest of fulfilling exercise mutual dependence. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 394-409.
47. Ayubovna, S. M. (2023). Jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishi va jismoniy sifatlarning ko'chishi. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 379-393.

48. Qurbanova, L. M., & Qurbonova, D. N. (2021). ZOMIN SHIFOBAXSH O'SIMLIKLARINING HUSUSIYATLARI. Журнал естественных наук, 1(3).
49. Qurbanova, L. M., Mullajonova, Z. S., & Toshboyeva, S. K. (2021). "NEFTNI QAYTA ISHLASH" MAVZUSINI OQITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. Science and Education, 2(3), 362-366.
50. Erkinovich, X. Z., Murodullavena, K. L., Mamadievich, R. Z., Mamirkulovich, M. Z., Xidirovna, L. Z., Oblakulovich, K. S., & Axmadjonovich, S. S. (2021). Improving the Surgical Treatment of Patients with a Biliary Disease Complicated by Mirizzy Syndrome. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 14697-14702.
51. Курбанова, Л. М., Хидиров, З. Э., & Абдураимов, З. А. (2021). КЛИНИКО-ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ БРУЦЕЛЛЁЗА В ВОЗРАСТНОМ АСПЕКТЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. Достижения науки и образования, (1 (73)), 61-68.
52. Qurbanova, L. M., & Toshboyeva, S. K. (2021). KIMYOVIY TAJRIBALAR-O'QUVCHILARNING KIMYODAN TAYYORGARLIK DARAJASINI OSHIRISHDA MUHIM OMIL. Журнал естественных наук, 1(3).
53. Qurbanova, L. M., & Qarshiboyev, B. I. (2021). NAVBAHOR GILLARINING GLITSERIN BILAN MODIFIKASIYALANGAN YUQORI GIDROLIZLANGAN POLIAKRILONITRIL (RS-2-3) ASOSIDA FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARINI O'RGANISH. Журнал естественных наук, 1(3).
54. Uktamovich, K. E., Oblakulovich, K. S., Murodullaevna, K. L., Hidirovna, L. Z., & Aslamovna, K. G. (2021). Effects of cellular cord blood on skin pathology in laboratory animals. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 2(1), 116-122.
55. Qurbanova, L. M. (2021). PISA XALQARO BAHOLASH DASTURINING AMALIY AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1497-1500.
56. Narzullaevna, K. S., Esirgapovich, K. A., Xalimovich, J. M., Murodillaevna, B. R. S. K. L., Solijonovna, U. O., & Naimovich, B. B. (2021). What is Ecology?. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3341-3345.
57. Qurbanova, L. M., & Suhanbarov, A. M. O. G. L. (2021). ZAMONAVIY TA'LIMGA QO'YILADIGAN TALABLAR. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1132-1135.
58. Ro'ziyeva, M. Y., & Azamova, N. U. B. (2024). BADIY ADABIYOTDA MAKON VA ZAMON TUSHUNCHASI VAULARNING KELIB CHIQISHI. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 2(2), 22-26.
59. Ruzieva, M. Y. (2016). EXPRESSION OF ATTITUDE TO COLORS IN TURKIC NATIONAL RITUAL SONGS. *Социосфера*, (4), 50-55.
60. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedراسи mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).
61. Рўзиева, М. Ё. (2020). ТУРКИЙ ХАЛҚЛАР ФОЛЬКЛОРИДА РАНГ ИФОДАЛОВЧИ СЎЗЛАР ВА УЛАРНИНГ СЕМИОТИК ТАХЛИЛИ. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1).
62. Рузиева, М. Я. (2019). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЖАНРОВ ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ. *ББК 71.0 И74 Редакционная коллегия Ответственный редактор*, 46.